



Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishi – qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokining ko`rinishi sifatida

Saida Abdimalikova

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda qonun ijodkorligi, xususan, fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi va bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo'shma Shtatlari va Germaniya kabi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bayon qilinib, ular asosida takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: qonun ijodkorligi, fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi, "Ishtirok etish demokratiyasi indeksi", "Mening fikrim" portali.

Аннотация: В данной статье был проведен анализ законотворчества в Узбекистане, в частности, права законодательной инициативы граждан и нормативно-правовых актов по этому вопросу. Также был изложен опыт развитых зарубежных стран, таких как Европейский союз, США и Германия, на основе которых были выдвинуты предложения.

Ключевые слова: правотворчество, право граждан на законодательную инициативу, "индекс демократии участия", портал "Мое мнение".

Abstract: This article analyzes legal relations in Uzbekistan, in particular the right of citizens to legislative initiative and regulatory legal acts on this issue. The experience of



developed foreign countries such as the EU, the USA and Germany was also outlined, on the basis of which proposals were put forward.

Keywords: legislative activity, citizens' right to legislative initiative, index of participatory democracy, portal "My opinion."

Mamlakatimizda qonun ijodkorligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – normativ-huquqiy hujjatlarning jamiyat manfaatlari va inson huquqlariga xizmat qilishini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ushbu masalaga alohida to'xtalib, "qonun ijodkorligi faoliyati "qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" degan ustuvor tamoyilga asoslanishi kerak"ligini ta'kidlaganlar.

Ushbu islohotlar doirasida mamlakatimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 98-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari doirasi sezilarli darajada kengaytirilib, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi belgilandi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish bo'yicha maqsadiga erishish, shuningdek, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, shu jumladan, ulardagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish va havolaki normalarini amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-sonli "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi



jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaroriⁱⁱ qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan AMALIY TADBIRLAR REJASIⁱⁱⁱ "Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish" 80-maqсад sifatida belgilandi.

Olib borilgan islohotlar natijasida xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasini o'rni ijobiy tomonga o'zgarmoqda.

2024-yilda V-dem tomonidan e'lon qilingan Ishtirok etish demokratiyasi indeksiga ko'ra, O'zbekiston 0.1 o'lchov qiymatiga ega bo'lgan. Ushbu indeksda ovoz berish huquqlari, saylovlarning erkinligi va adolatliligi, uyushish va so'z erkinligi, shuningdek fuqarolarning mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya bilan shug'ullanishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar kabi indikatorlar asos qilib olingan^{iv}.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining REGLAMENTIning 152-2-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, Senat, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli. Mazkur qonunchilik taklifida muayyan sohada qonunni qabul qilish, amaldagi qonunlarga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish, qonunlarni yoki ularning qismlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish zaruriyati asoslantirilgan bo'lishi, shuningdek qabul qilish uchun taklif etilayotgan qonunning konsepsiyasi va kutilayotgan natijalar to'g'risidagi axborot bo'lishi kerak.



Quyidagi masalalar Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan kiritiladigan qonunchilik taklifining predmeti bo‘lishi mumkin emas:

O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o‘zgartirish to‘g‘risidagi;
amnistiya va afv etish haqidagi;
mansabdor shaxslarni tayinlash va lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi.

Qonunchilik taklifi Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan kiritilayotganda quyidagilar ilova qilinishi kerak:

qonunchilik taklifining matni;

saylov huquqiga ega bo‘lgan, yuz ming nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yashash joyi manzili, pasportining yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasining seriyasi va raqami, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan kiritilgan imzoning sanasi ko‘rsatilgan imzo varaqalari. Bunda imzolar kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida mutanosib taqsimlangan bo‘lishi hamda imzolar sonida yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p chetga chiqish, qoida tariqasida, o‘n foizdan oshmasligi kerak;

qonunchilik taklifini ko‘rib chiqish chog‘ida ishtirok etadigan vakil yoki vakillar guruhi haqidagi axborot.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fuqarolarning qonunchilik tashabbusi bilan chiqish imkoniyatini ta’minlash uchun maxsus onlayn platformalar mavjud. Ushbu portallar orqali fuqarolar muayyan qonun loyihalarini taklif qilishlari, imzo to‘plashlari va hukumat organlari yoki parlament tomonidan ko‘rib chiqilishini talab qilishlari mumkin.

Yetarlicha imzo to‘plangan taqdirda rasmiy javob taqdim etiladi. **Yevropa Ittifoqida** Yevropa fuqarolari tashabbusi (“European Citizens' Initiative” - <https://citizens-initiative.europa.eu/en>) veb-portali mavjud. Fuqarolar tomonidan ishlab chiqilgan Qonun



loyihasi 1 million imzo to'planganda, Yevropa Komissiyasi qonunchilik taklifini ko'rib chiqishi shart. Bunda, kamida 7 ta turli Yevropa davlatidan imzolar talab qilinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida "We the People" ([Petitions.WhiteHouse.gov](https://petitions.whitehouse.gov)) fuqarolar hukumatdan muayyan masalalarni ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Shveysariya – Swiss E-Initiative Platforms, Shveysariya bevosita demokratiya tizimiga ega bo'lib, fuqarolar referendum o'tkazish uchun tashabbus bilan chiqishlari mumkin. Federal darajada qonunchilik tashabbusi uchun kamida 100 000 imzo yig'ilishi lozim.

Germaniyada qonun tashabbusi bilan chiqish uchun petitsiya orqali parlamentga murojaat qilish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Fuqarolar Bundestagning rasmiy petitsiyalar portali orqali qonunchilik tashabbusi bilan chiqishlari mumkin. Ushbu portal E-Petitionen Bundestag – epetitionen.bundestag.de bo'lib, unda fuqarolar yangi petitsiyalar yaratishi yoki mavjud petitsiyalarni imzolashi mumkin.

Agar petitsiya 50 000 yoki undan ortiq imzo to'plasa, u Bundestagning tegishli qo'mitalarida muhokama qilinadi. Onlayn petitsiyalar Bundestag veb-saytida e'lon qilinadi va barcha fuqarolar imzo qo'yishi mumkin. Ayrim petitsiyalar bo'yicha muhokamalar jonli efirda olib boriladi.

Hozirgi kunda "Mening Fikrim" (meningfikrim.uz) jamoaviy murojaatlar portali sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu platforma orqali fuqarolar turli dolzarb masalalar bo'yicha petitsiyalar yaratishi va 10 000 imzo to'plangan taqdirda u Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan. Biroq, aynan qonunchilik tashabbusini ilgari surish bo'yicha imkoniyatlar cheklangan.

Qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish tizimini yaratish uchun yangi bo'lim – "Qonun loyihalari" bo'limi yaratiladi va u quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Fuqarolarga qonun loyihalarini ishlab chiqish va taklif qilish imkoniyatini beradigan maxsus bo'lim joriy etish.



2. Qonun loyihalarini yaratishda fuqarolar mavjud qonunchilik bazasiga tayanishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlari, kodekslari va normativ hujjatlar bo'yicha avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish.
3. Takliflarni huquqshunoslar va ekspertlar ko'rib chiqishi uchun maxsus moderatsiya tizimi joriy etish.
4. Biometrik tasdiqlash orqali imzo qo'yish imkoniyatini yaratish. Face ID yoki barmoq izi orqali autentifikatsiya qilish – bu fuqarolarning shaxsini aniq tasdiqlaydi va imzo soxtalashtirilishining oldini oladi. Elektron raqamli imzo (ERI) bilan integratsiya qilish – imzo qo'yish jarayonini rasmiylashtirish va parlament tomonidan qonuniy maqom berish.
5. Tegishli qo'mitalar bilan integratsiya – Oliy Majlisning qonunchilik qo'mitalari takliflarni ko'rib chiqish mexanizmini yaratish. Qonun loyihalarining bosqichma-bosqich statusi – portalda har bir qonun loyihasining “Ko'rib chiqilmoqda”, “Muhokamada”, “Rad etilgan”, “Qabul qilingan” kabi holatlari aks etishi lozim.

“Mening Fikrim” portali fuqarolarning qonunchilik tashabbusini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lsa, bu fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun chiqaruvchi organlar va xalq o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday mexanizm xalq bilan muloqot qilishning samarali vositasi bo'lishi mumkin.

^vFoydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹ <https://review.uz/uz/post/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-savkata-mirzиеeva-na-zasedanii-zakonodatelnoj-palaty-olij-mazlisa>

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2024-y., 07/24/75/0137-son; 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son // <https://lex.uz/uz/docs/-6806476>

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son // <https://lex.uz/docs/-7369703>

¹ <https://ourworldindata.org/grapher/participatory-democracy-index>

